

“YOSHLAR” VA “YOSHLAR TURIZMI” TUSHUNCHALARIGA OID TURLI YONDASHUVLARNING TAHLILI

Annotatsiya. Maqolada yoshlar turizmining subyekti boʻlmish yoshlar tushunchasining olimlar tomonidan oʻrganilgan turli talqinlari, qonun va qarorlarda keltirilgan taʼriflar, shuningdek xalqaro tashkilotlar belgilagan yoshlik chegaralari oʻrganilgan. Bundan tashqari, yoshlarning sayohatidan tashkil topgan turizm turi boʻlmish yoshlar turizmi tushunchasiga olimlarning bergan taʼriflari oʻrganilib, ushbu turizm turiga ularning turli yondashuvlari tahlil qilingan, yoshlar turizmining asosiy xususiyatlari keltirilib, misollar bilan asoslangan.

Kalit soʻzlar: yoshlar, yoshlar turizmi, yoshlik chegarasi, ijtimoiy-demografik guruh, raqamli yondashuv, “Backpacking”, Airbnb, “Couchserfing”.

Annotation. The article presents various interpretations of the concept of youth, which learned by scientists. Additionally, given definitions to youth in laws and decrees, youth ages which set by international organizations have been learned. Moreover, definitions given by scholars to the concept of youth tourism have been studied, and their different approaches to this type of tourism have been analyzed, main features of youth tourism are presented and proven with examples.

Keywords: youth, youth tourism, youth age, social-demographic group, digital approach, “Backpacking”, Airbnb, “Couchserfing”.

Kirish. Turizm va yoshlar bir-biri bilan chambarchas bogʻliqdir. Yoshlar turizmining subyektini yoshlar tashkil qiladi. “Yoshlar” tushunchasi keng qoʻllanilishiga qaramay, ushbu atama ilmiy tadqiqotlarda turli talqinlarda namoyon boʻladi. Yoshlarni alohida guruh sifatida ajratib koʻrsatishdan maqsad, ular boshqalardan maʼlum bir yosh xususiyatlari bilan ajralib turadi, shu bilan birga yosh oraligʻi nafaqat xronologik doiralar, balki ijtimoiy mavqe va ijtimoiy maqom bilan ham farqlanadi.

Yosh chegaralarini aniqlashda keng tarqalgan qarashlarni qabul qilish maqsadga muvofiq, yaʼni, yoshlikning boshlanishi (bolalikning oxiri) inson organizmida jinsiy yetuklik bilan bogʻliq fiziologik va ruhiy jarayonlarning tugallanish davri (12 yoshdan 16 yoshgacha), shuningdek, bir qator ijtimoiy sharoitlar va yoshlikning tugashi - bu yosh odam kattalar pozitsiyasiga toʻliq kirgan payt, bu bir qator shartlarga mos kelishi lozim [16]:

- iqtisodiy mustaqillik, yaʼni oʻz mavjudligi uchun zarur boʻlgan vositalarni egallash uchun javobgarlik va ularni yaratish qobiliyati;

- shaxsiy mustaqillik, yaʼni jamiyatda yashash uchun hech qanday cheklovlarisiz, boshqa birovning vasiyilisiz, mavjudlikning barcha sohalarida oʻziga tegishli qarorlar qabul qilish qobiliyati;

- mavjud boʻlish uchun oʻz ixtiyorida boʻlgan vositalarni mustaqil nazorat qilish;

- ota-onasidan mustaqil ravishda oʻz uyini yaratish va uni saqlash va boshqarish uchun masʼuliyatni oʻz zimmasiga olish.

Ushbu toʻrtta shartning har biri zarur, ammo ularning barchasi birgalikda insonning “yoshlar” toifasiga mansubligini toʻxtatganligini tan olish uchun yetarlidir.

Mamlakatimizning “Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida”gi¹ qonunida yoshlarga 14 yoshdan 30 yoshgacha boʻlgan shaxslar kiritilgan. Bu yoshda, qoida tariqasida, mamlakatimiz yoshlari umumtaʼlim maktablari va oliy oʻquv yurtlarida tahsil oladi. Bundan tashqari, Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida yoshlar bilan ishlashning yangicha tizimini joriy etish borasidagi

¹ “Oʻzbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatiga toʻgʻrisida”gi Qonuni, 3-modda / <https://lex.uz/docs/-3026246>

dolzarb vazifalar yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda¹ 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarning ijtimoiy ahvoli, qobiliyati va qiziqishlari o'rganilib, ular 3 toifaga ajratildi. Bunda:

- yaxshi o'qiyotgan, tadbirkorligini yo'lga qo'ygan, rasmiy sektorda ishlaydigan, qobiliyati bor, ijtimoiy faol bo'lgan 4,4 million yoshlar "yaxshi" toifaga;

- turmush taqozosi bilan rasmiy sektordan ish topa olmagan, lekin iqtisodiy faol 4,6 million yosh "o'rta" toifaga kiritildi;

- davlatning g'amxo'rligi va e'tiborini kutayotgan hamda ko'makka muhtoj 396 ming nafar yoshlar "ahvoli og'ir" toifasiga alohida ajratib olindi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. "Yoshlar" tushunchasini aniqlashning turli xil variantlari mavjud bo'lib, bu borada olimlar o'z yondashuvlarini taklif qilganlar. Jumladan, Ingliz olimi Saymon Fris yoshlarni aniqlashda o'ziga xos yondashuvni taklif qilgan. Bundan tashqari, T.V.Lisovskiy, I.S. Kon, V.I. Dobrinina, A.L.Marshak kabi olimlar yoshlarni o'rganib, ularni ma'lum bir funksiyalarni o'zlashtirgan avlod, alohida ijtimoiy-demografik guruh sifatida e'tirof etganlar. Shuningdek, "Yoshlar turizmi" tushunchasini o'rganishda Richards G, Palatkina G.V, Birjakov M.B, Ghete, A. M, Melnichuk M. M., Zeyko V.O., Kononov A.YU., Yunusovich S.S. kabi olimlar tadqiqotlar olib borib, o'z ilmiy maqolalari va kitoblarida chuqur tahlillarni, fikr va mulohazalarini keltirib o'tganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tahlil tadqiqot usulini qo'llagan holda – yoshlar va yoshlar turizmi atalamalarining mazmuni yoritilgan. Bu borada mutaxassislar fikrini o'rgangan holda, kuzatish, empirik tadqiqot, tizimli va qiyosiy tahlil kabi usullar qo'llanilgan. Bundan tashqari, yoshlar va yoshlar turizmiga oid xalqaro tashkilotlar, qonun va qarorlar, respublikada ishlab chiqilgan farmonlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Adabiyotlarda [14] yoshlar tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi: yoshlar - bu yosh xususiyatlari, ijtimoiy mavqe xususiyatlari asosida aniqlangan va ma'lum bir jamiyatning ijtimoiy tizimi, madaniyati, ijtimoiylashuvi, ta'lim-tarbiya xususiyatlari bilan belgilanadigan ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, zamonaviy yosh chegaralari 14-16 yoshdan 25-30 yoshgacha, aholi ulushi 20% gacha bo'lgan ijtimoiy-demografik guruh".

Ushbu ta'rif, birinchi navbatda, yosh chegaralari bo'yicha aniqlashtirishni talab qiladi. Bugungi kunga qadar yosh chegaralari bo'yicha alohida ilmiy ta'rif mavjud emas, uning muhim mohiyati ochib berilmagan. Uzoq vaqt davomida yoshlarga alohida guruh vakillari sifatida emas, balki ishchilar sinfining, sovet ziyolilarining va boshqalarning ajralmas qismi sifatida qaraldi. Sotsiologlar birinchi bo'lib yoshlarni alohida ijtimoiy guruh sifatida aniqladilar, ular uchun o'ziga xos me'yorlar, qadriyatlar va qiziqishlarni belgiladilar.

Ingliz olimi Saymon Fris [2] yoshlarni aniqlashda o'ziga xos yondashuvni taklif qildi, ya'ni: yoshlik holatining ijtimoiy kontekstini bolalikdan kattalikka o'tish jarayoni sifatida ko'rib chiqish. Uning fikricha, bolalikdan kattalikka o'tishning asosiy yo'nalishlari: qaramlikdan mustaqillikka va mas'uliyatsizlikdan mas'uliyatga o'tish.

Shu ma'noda, yoshlar tushunchasi muhim iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy resurslardan foydalanish cheklanganligi bilan ajralib turadigan ma'lum yoshdagi (Fris tomonidan tavsiya etilgan yosh chegaralari 11 yoshdan 28/30 yoshgacha) insonlardir.

T.V.Lisovskiyning fikriga ko'ra[12], yoshlar 16 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan, sotsializatsiya bosqichidan o'tadigan va ta'lim, madaniy, kasbiy va boshqalar kabi asosiy ijtimoiy funksiyalarni o'zlashtirgan avlod.

I.S. Kon [11] yoshlarni o'rganishga alohida ijtimoiy-demografik guruh sifatida katta e'tibor qaratadi. Uning fikricha, "yoshlar - bu yosh xususiyatlari, ijtimoiy mavqe xususiyatlariga ko'ra ajralib turadigan ijtimoiy-demografik guruh".

V.I. Dobrinina[10] "yoshlar" tushunchasini aniqlash uchun psixofiziologik, iqtisodiy va ijtimoiy mezonlarni hisobga olish zarurligiga e'tibor qaratadi, chunki yoshlar jamiyatning eng dinamik qismi bo'lib, ular "tana va ruhiyatning shakllanish bosqichidan o'tadigan, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk bo'lmagan yosh guruhiga mansub".

¹ <https://kun.uz/news/2023/04/11/ozbekistonda-14-yoshdan-30-yoshgacha-bolgan-yoshlar-3-toifaga-ajratildi>

A.L.Marshak[13] yoshlikning quyi yosh chegarasini 17 yosh deb hisoblashni taklif qiladi. Yuqori chegaralarga kelsak, rivojlanishning hozirgi bosqichida 33-40 yoshdagi odamlarni yoshlar deb hisoblash mumkin emas. Ya'ni, XXI asrdagi ijtimoiy o'zgarishlar yoshlarning yosh xususiyatlarining bosqichma-bosqich qisqarishini oldindan belgilab berdi.

Rossiya Federatsiyasining "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi Federal Qonunida ko'ra yoshlarning yosh chegaralari 14 yoshdan 35 yoshgacha etib belgilangan (2020-yil). Ilgari 30 yoshgacha bo'lgan fuqarolar yoshlar hisoblanardi. O'zgarishlar ko'proq odamlarga turli xil yordam olish imkonini berdi: yosh chegarasining oshishi bilan Rossiya Federatsiyasida yoshlar soni taxminan 12,7 million kishiga ko'paydi[21].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti [22] "yoshlar"ni 15 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan shaxslar deb belgilaydi (1-jadval). Xalqaro Yoshlar yiliga (1985) tayyorgarlik ko'rish kontekstida paydo bo'lgan ushbu ta'rif Bosh Assambleyaning 36/28 (1981) rezolyutsiyasida ma'qullangan. Tashkilotning yoshlarga oid barcha statistik ma'lumotlari ushbu ta'rifga asoslanadi, bu BMT tizimi tomonidan nashr etiladigan aholi, ta'lim, bandlik va sog'liqni saqlash bo'yicha yillik statistik yilnomalarda aks ettirilgan. Bundan tashqari, Butunjahon turizm tashkiloti (1991) [6] yosh sayyohlar 15 yoshdan 26 yoshgacha bo'lgan odamlar ekanligini ta'kidlaydi. Boshqa tomondan, Butunjahon yosh talabalar va sayohat ta'limi konfederatsiyasi [7] yosh sayyohlar 15 yoshdan 29 yoshgacha bo'lganligini ta'kidlaydi (WYSE Travel Confederation, 2012). Biroq, bu mamlakatga ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizning "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi [1] qonunida yoshlarga 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan shaxslar kiritilgan. Bu yoshda, qoida tariqasida, mamlakatimiz yoshlari umumta'lim maktablari va oliy o'quv yurtlarida tahsil oladi. Bundan tashqari, Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida yoshlar bilan ishlashning yangicha tizimini joriy etish borasidagi dolzarb vazifalar yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda¹ 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarning ijtimoiy ahvoli, qobiliyati va qiziqishlari o'rganilib, ular 3 toifaga ajratildi. Bunda:

- yaxshi o'qiyotgan, tadbirkorligini yo'lga qo'ygan, rasmiy sektorda ishlaydigan, qobiliyati bor, ijtimoiy faol bo'lgan 4,4 million yoshlar "yaxshi" toifaga;
- turmush taqozosi bilan rasmiy sektordan ish topa olmagan, lekin iqtisodiy faol 4,6 million yosh "o'rta" toifaga kiritildi;
- davlatning g'amxo'rliqi va e'tiborini kutayotgan hamda ko'makka muhtoj 396 ming nafar yoshlar "ahvoli og'ir" toifasiga alohida ajratib olindi.

"Yoshlar turizmi" tushunchasiga oid turli yondashuvlar²

№	Muallif yoki manba	Yil	Ta'riflar
1.	Richards G [5].	2008	Yoshlar turizmi 16 yoshdan 29 yoshgacha bo'lgan odamlarning bir yildan kamroq davom etadigan va boshqa madaniyatlarni boshdan kechirish, hayotiy tajribalarni shakllantirish va yoki odatdagi muhitdan tashqarida rasmiy va norasmiy imkoniyatlardan foydalanish istagidan kelib chiqqan mustaqil sayohati deb ta'riflanadi.
2.	Palatkina G.V [15]	2012	Yoshlar turizmi – bu yangi avlodga insoniyat tomonidan to'plangan hayotiy tajriba va moddiy va madaniy merosni o'tkazish, qadriyatlar yo'nalishini shakllantirish, millatning ma'naviy tiklanishi va madaniy rivojlanishi, shaxsni sotsializatsiya qilish usullaridan biri.
3.	Birjakov M.B [9]	2014	"Yoshlar turizmi" ta'rifi ostida individual yoki jamoaviy shaklda dunyoni bilishga va dam olish tashkil etishga qaratilgan yoshlar uchun kompaniyalar tomonidan tashkil etiladigan sayohatning maxsus turi yotadi.

¹ <https://kun.uz/news/2023/04/11/ozbekistonda-14-yoshdan-30-yoshgacha-bolgan-yoshlar-3-toifaga-ajratildi>

² Muallif tomonidan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.

4.	Ghete, A. M [3].	2015	Yosh sayyohlar yangi madaniyat bilan tanishish tajribasini yaratish va o'zlari uchun noma'lum bo'lgan va ularning kundalik hayotidan farq qiladigan muhitda rasmiy va norasmiy yangi ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish uchun sayohat qilishga undagan shaxslar sifatida ta'riflanadi.
5.	Butunjahon yosh talabalar va sayohat ta'limi konfederatsiyasi (WYSE TC) [16]	2016	Yoshlar turizmi bir yildan uzoq bo'lmagan muddatda 16–29 yoshgacha bo'lgan shaxslarning xalqlar madaniyatlarni o'rganish, hayotiy tajribaga ega bo'lish va bilimlarini oshirish kabi barcha mustaqil sayohatlarini o'z ichiga oladi.
6.	Melnichuk M. M. Zeyko V.O. [4]	2016	“Yoshlar turizmi - bu 18 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan yoshlarning doimiy yashash joyidan tashqarida, foyda ko'rmasdan olib boriladigan madaniy-ma'rifiy, sport, bo'sh vaqt yoki kognitiv faoliyatni o'z ichiga olgan dam olish faoliyati”.
7.	Yunusovich S.S. [8]	2018	Yoshlar turizmi – 16 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan fuqarolarning doimiy yashash joyidan dam olish, o'rganish, boshqa madaniyatlarni tushunish yoki qabul qiluvchi mamlakatda kasbiy tajriba orttirish uchun vaqtinchalik (olti oydan kam) sayohatlari.
8.	Kononov A.YU. [19]	2019	Yoshlar turizmi – murakkab hodisa bo'lib, nafaqat destinatsiyani, balki mintaqaning ishlab chiqaruvchi kuchlarining eng dinamik va faol elementini rivojlantirib, o'z navbatida butun mamlakatning resurs salohiyatini oshirishga yordam beradi.
9.	Kanadaning Yoshlar Turizm Konsortsiyumi (YTCC)	2020	Yoshlar turizmni – 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarning oilasiz sayohat qilishlari, biznes maqsadlari uchun emas, balki do'stlari yoki qarindoshlarini ziyorat qilish uchun, ta'lim maqsadida yoki ko'ngilxushlik uchun 24 soatdan ko'proq davom etadigan sayohatlari.
10.	Muallif ta'rifi	2025	Yoshlar turizmi yosh sayyohlarning dunyoni ko'rish, yangi bilimlar orttirish, boshqa xalqlarning madaniyatini o'rganish hamda yangi tanishlar orttirish maqsadida qilingan, cheklangan byudjetga asoslangan, raqamli va moslashuvchan sayohati tushuniladi.

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, turli ta'riflarda yoshlar uchun yosh chegaralari turlicha belgilangan. Ba'zi mualliflar 16 yoshdan 29 yoshgacha bo'lgan sayyohlarni yoshlar turizmiga kiritgan bo'lsalar, boshqalari 16 yoshdan 30 yoshgacha, hattoki 35 yoshgacha bo'lgan yoshlar sayohatini yoshlar turizmi deb hisoblashadi. Yuqorida keltirilgan ta'riflarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, “yoshlar turizmi” tushunchasiga olimlar tomonidan berilgan turlicha ta'riflarni o'rganish jarayonida ular asosan yoshlarni sayohat qilishga undaydigan bir nechta faktorlarni sanab o'tganliklarini guvohi bo'ldik. Ularga ko'ra, yoshlar:

- boshqa madaniyatlarni boshdan kechirish;
- hayotiy tajribalarni shakllantirish;
- odatdagi muhitdan tashqarida rasmiy va norasmiy imkoniyatlardan foydalanish istagi;
- dunyoni bilish va dam olish;
- yangi madaniyat bilan tanishish tajribasini yaratish;

- kundalik hayotdan farq qiladigan muhitda rasmiy va norasmiy yangi ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish;
- hayotiy tajribaga ega bo'lish;
- bilimlarini oshirish;
- kasbiy tajriba orttirish;
- do'stlari yoki qarindoshlarini ziyorat qilish;
- ta'lim maqsadida yoki ko'ngilxushlik istagi.

Umuman olganda, ushbu faktorlarning barchasi umumiy xarakterga ega bo'lib, bir necha mualliflar ularni o'z ta'riflarida nazarda tutganlar. Masalan, Richards yoshlarni sayohat qilishga undaydigan faktorlardan biri "boshqa madaniyatlarni boshdan kechirish" deb keltirgan bo'lsa, Ghete uni boshqacha qilib "yangi madaniyat bilan tanishish tajribasini yaratish" deb nazarda tutadi. Shuningdek, "odatdagi muhitdan tashqarida rasmiy va norasmiy imkoniyatlardan foydalanish istagi" hamda "kundalik hayotidan farq qiladigan muhitda rasmiy va norasmiy yangi ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish" kabi bir biriga o'xshash tushunchalarni ular o'z ta'riflarida keltirganlar. Bundan tashqari, Palatkina va Butunjahon yosh talabalar va sayohat ta'limi konfederatsiyasi bergan tariflarda yoshlar hayotiy tajribaga ega bo'lish uchun sayohat qilishlari ta'kidlanadi.

Ko'pgina mualliflar yoshlar turizmiga ijtimoiy jihatdan yondashib, yoshlar turizmi yoshlar o'rtasida madaniy almashinuvni rivojlantirishini, do'stona aloqalar va ijtimoiy tarmoqlarni kengaytirishini, jamoaviy safar orqali kommunikatsiya ko'nikmalari mustahkamlanishini ta'kidlab o'tganlar. Ammo ushbu yondashuvning ba'zi bir kamchilik tomonlari ham mavjud bo'lib, ular ijtimoiy tafovutlar, ya'ni til, madaniyat, iqtisodiy holat sababli yosh sayyohlar orasida bir qator kelishmovchiliklar bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ko'p sonli guruhlar bilan ishlar tashkiliy jihatdan murakkab kechishi mumkin.

Ta'limiy jihatdan yondashganda esa, sayohat orqali bilim olish imkoni, ya'ni tarixiy joylarga tashrif buyurib tarixni o'rganish, universitet safarlarida turli konferensiyalarga qatnashish imkoniyatlari nazarda tutiladi. Ushbu yondashuvning asosiy kamchiligi xarajatlarning yuqoriligida bo'lishi mumkin, chunki seminarlar, kurslar hamda gid xizmatlari odatda yaxshigina to'lov evaziga uyushtiriladi. Shuningdek, ba'zi yoshlar o'qishdan ko'ra ko'proq ko'ngilochar tomonga qiziqishadi.

Yoshlar turizmiga mualliflar tomonidan eng ko'p urg'u berilgan yondashuv ko'ngilocharlik bo'lib, u yoshlar orasida eng ommabop bo'lgan turli festivallar, konsert dasturlari, plyajda dam olishni o'z ichiga oladi. Ushbu mashg'ulotlar har kunlik rutinadan zerikkan yoshlarga stressni kamaytirib, dam olish imkonini beradi. Tabiat qo'ynida o'tkazilgan vaqt esa ekologik ongini rivojlantiradi va sog'lom turmush tarzini rag'batlantiradi. Ammo, maqsadsiz va nazoratsiz sayohatlar salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Masalan, spirtli ichimliklar ichib xavfli xatti-harakatlar sodir bo'lishi mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, ko'ngilocharlik ko'proq moliyaviy xarajat talab etadi.

So'nggi yillarda yoshlar orasida raqamli texnologiyalar orqali sayohatni rejalashtirish, sayohat davomida internetdan foydalangan holda fotosuratlarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish orqali sayohatning qanday kechayotgani bilan bo'lishish yoshlar orasida urfga aylandi. Bu esa shundan dalolat beradiki, yoshlar turizmiga ta'rif berayotganda raqamli tomondan ham yondashish ayni muddaodir. Ya'ni, texnologiyalar orqali sayohatni interaktiv qilish mumkin, jumladan, turli ilovalar, AR/VR foydalanish orqali. Ammo, har bir yaxshining yomoni borligi kabi ushbu yondashuvning ham kamchiliklari mavjud. Turli texnologiya va mobil qurilmalaridan hadda tashqari ko'p foydalanish raqamli qaramlikni keltirib chiqaradi. Ba'zida virtual tajriba haqiqiy tajribaning o'rnini to'liq bosa olmaydi.


Yoshlar turizmining xususiyatlari quyidagilardan iborat (1-rasm):

- **Cheklangan byudjetga asoslanganligi.** Yoshlar ko'pincha sayohat qilishda soddaroq va arzon turpaketlarni tanlaydilar, chunki ularning moliyaviy imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Odatda arzon mehmonxonalar, hostellar, "Couchserfing" (tengdoshlarini uyiga mehmon bo'lish) kabi xizmatlardan foydalanishadi. Transportda esa avtobus, poyezd yoki arzon aviaxizmatni (low-

cost airline) afzal ko'rishadi. Masalan, Yevropada, Interrail – poyezd orqali sayohat yoshlar orasida mashhur bo'lib, ko'plab yoshlar Interrail kartasi yordamida bir nechta davlatlarni arzon narxlarda poyezd bilan kezib chiqishadi. Bu ko'p hollarda yozgi ta'til paytida amalga oshiriladi.

- **Sarguzasht va yangilikka intilish.** Yoshlar aktiv dam olish turlarini afzal ko'rishadi, ular yangi joylarni ko'rish, ekstremal sport turlari (skeytbord, rafting, surfing, parashyut), tog' yurishlar (trekking), suv ostiga sho'ng'ich (diving) yoki sarguzashtli sayohatlarga qiziqish bildiradilar. Noyob tajriba – ularning asosiy motivatsiyasi hisoblanadi.

Masalan, O'zbekistonda yozda Farg'onada, Andijonda, Namanganda yoshlar oromgohlari va sport-turizm lagerlari (palatka turlari, tog' yurishlari) tashkil etilgan. Talabalar o'z ta'tillarini maroqli o'tkazish uchun ushbu oromgohlarga qatnashishadi.



1-rasm. Yoshlar turizmining xususiyatlari

- **Raqamli texnologiyalardan keng foydalanish.** Yoshlar sayohatni rejalashtirishda internet va mobil qurilmalardan keng foydalanishadi. Ular orasida onlayn bron qilish, mobil ilovalar orqali yo'nalish topish, jtimoiy tarmoqlarda tajriba ulashish keng tarqalgan. Asosan, Airbnb, Couchsurfing, Google Maps, Instagram kabi ilovalardan faol foydalanishadi.

Masalan, ko'plab yoshlar mehmonxonaga pul tejash uchun Couchsurfing ilovasi orqali mahalliy odamlarnikida tekin tunashadi. Ushbu xizmatdan foydalanish uchun, foydalanuvchi ilovaga ro'yxatdan o'tib, borishni xohlagan shaharda mehmon qiluvchilarni qidirib, ular bilan yozishib kelishuvga erishadi va boorish vaqtini belgilab bepul tunashi va uchrashib suhbatlashishi, mavjud savollariga javob topish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Airbnb ilovasi esa butun dunyo bo'ylab odamlar o'z uylari, kvartiralar yoki xonalarini **sayohatchilarga ijaraga berishi** mumkin bo'lgan onlayn platforma (ilova va veb-sayt) bo'lib hisoblanadi. Sayohatchi undan foydalanish uchun ro'yxatdan o'tib, boradigan shahrini tanlashi, va taqdim etilgan joylar orasida narx, joylashuv va qulayliklarga qarab tanlov qilishi mumkin. Ushbu ilovaning afzaligi shundaki, unda taklif etiladigan joylarda mehmonxonadan ko'ra xususiyoq muhit, moslashuvchan narxlar — arzon xonadan tortib, hashamatli villagacha bor, mahalliy tajriba — odatda mahalliy odamlar bilan bevosita aloqa qilish imkoniyati, oshxona, kir yuvish mashinasi kabi uy qulayliklari mavjud.

- **Ijtimoiylik va madaniy almashinuvga intilish.** Yoshlar yangi odamlar bilan tanishish, xalqaro do'stlikni mustahkamlash, chet tillarini amalda qo'llash imkoniyatlarini izlashadi,

madaniy almashinuvga intilishadi. Festival, forum, konsert va boshqa ommaviy tadbirlar mashhur sayohat sababi bo'lishi mumkin. Ko'plab yoshlar "voluntourism" (ko'ngillik asosidagi sayohatlar), "Work& Travel" kabi xalqaro almashinuv dasturlarida ishtirok etishadi.

Masalan, ko'plab o'zbekistonlik talabalar yozgi ta'til vaqtida "Work and Travel" dasturi orqali turli Yevropa mamlakatlari va AQSH ga borib ishlashadi hamda sayohat qilishadi. Bu tajriba ularning til o'rganishiga, madaniyat almashishiga va dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi. Afrika, Osiyoda volontyorlik sayohatlari mashhur bo'lib, yoshlar ko'ngillik bo'lib, mahalliy jamiyatlarda ta'lim, sog'liqni saqlash yoki atrof-muhitni asrash bo'yicha ishlashadi. Bu sayohat orqali ular tajriba, madaniy bilim va til ko'nikmalarini oshirishadi. Dunyo bo'ylab o'tkaziladigan "Youth Forum", "Global Youth Summit", "World Festival of Youth and Students" kabi tadbirlar yoshlar orasida mashhur.

- **Ta'limiy va kasbiy rivojlanishga qaratilgan.** Ko'plab yoshlar til o'rganish, konferensiya, trening va master-klasslarda qatnashish maqsadida sayohat qilishadi. Ular ta'limni boshqa o'quv yurtlarida davom ettirish maqsadida "Erasmus+" kabi almashinuv dasturlarida ishtirok etishadi. **Ushbu dastur Yevropa Ittifoqining** ta'lim, o'quv, yoshlar va sport sohalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan xalqaro dasturi bo'lib, dunyoning 150 dan ortiq davlati bu dasturda ishtirok etadi. Talabalar uchun bepul yoki grant asosida xorijiy universitetda 1–2 semestr o'qish, stajirovka o'tash, til o'rganish va yangi madaniyat bilan tanishish kabi imkoniyatlarni beradi. Bundan tashqari, Yevropada o'qish xarajatlari uchun oylik stipendiya (taxminan 800–1200 yevro) ajratiladi.

- **Mustaqillik va o'zini anglash istagi.** Yoshlar o'zlari mustaqil sayohat qilishga, qarorlar qabul qilishga harakat qiladilar. Sayohat ularning dunyoqarashi kengayishiga, o'z-o'zini anglashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

- **Moslashuvchanlik va erkinlik.** Yoshlar qat'iy rejalardan ko'ra moslashuvchan yo'nalishlarni afzal ko'radilar. Ular hech qanday turpaketsiz, sayohatlarini oldindan rejalashtirmay sayohat qilishlari mumkin, "Backpacking" (yelkadosh bilan sayohat) uslubi bu xususiyatga mos keladi. Ushbu uslub "back" orqa va "pack" sumka, inglizcha so'zlarining qo'shilmasi bo'lib, orqaga sumkani ilib yo'lga chiqish ma'nosini anglatadi va yosh avlod orasida bu turizm turi juda ommabop.

Xulosa. Yuqorida o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga kelindiki, yoshlar zamonaviy jamiyatning yashirin manbasi va ob'ektiv qadriyati bo'lib, ular mamlakat aholisining salmoqli qismini tashkil etadi. Yoshlarga faol hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan, ijtimoiy rollarni shakllantirish bosqichidan o'tadigan, asosiy umumiy ta'lim, kasbiy va boshqa funktsiyalarni o'zlashtirgan, shuningdek, jamiyat tomonidan ushbu rollarni o'zlashtirish va bajarishga tayyorlanayotgan avlod sifatida qarash maqsadga muvofiq. Yosh chegaralarini aniqlashda ko'pgina olimlarning fikriga tayangan holda, yoshlar turizmini 16 va 30 yosh oralig'idagi sayyohlar tashkil etishiga amin bo'ldik. Shuningdek, yoshlar turizmiga mualliflarning ijtimoiy, ta'limiy, ko'ngilocharlik va raqamli yondashuvlari o'rganib, ularning afzal tomonlari hamda kamchiliklari sanab o'tdik. Yoshlar turizmining asosiy xususiyatlarini keltirib, ularning har birini misollar bilan asoslab berdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, 3-modda / <https://lex.uz/docs/-3026246>
2. Frith S. The Sociology of Youth. London: Open University Press, 1984.
3. Ghete, A. M. (2015). The Importance Of Youth Tourism, *Annals of Faculty of Economics, University of Oradea*, vol. 1, no. 2, pp. 688-694
4. Melnichuk M. M., Zeyko V.O. Youth and children's tourism: the essence and classification by age // [Visnyk of V. N. Karazin Kharkiv National University. Series Geology. Geography. Ecology](#) № 44, 2016
5. Richards, G. (2008), Youth travel matters: understanding the global phenomenon of youth travel. World Tourism Organization (WTO))

6. World Tourism Organization (1991). International conference on youth tourism, New Delhi (India): Final report. 18-21 November 1991, http://www.atlaseuro.org/pages/pdf/Student_Youth_Travel_Bibliography.pdf
7. WYSE Travel Confederation. (2012). Youth and student travellers age 15 to 29 represent 23% of international tourist arrivals, WYSE Travel Confederation, <https://www.wysetc.org/2015/09/youth-and-student-travellers-age-15-to-29-represent-23-of-international-tourist-arrivals/>
8. Yunusovich S. S. Youth Tourism as a Scientific Research Object // Journal of Tourism & Hospitality 2018
9. Биржаков М.Б. Введение в туризм // СПб.: Издательский дом "Герда", 2000. – С. 185.
10. Добрынина, В.И. Воспитание личности – управляемый процесс // Социальное управление и молодежь. М., 1969. Вып. 3. С. 38.
11. Кон И.С. Молодежь // Философский энциклопед. словарь. 2-е изд. / ред. кол.: Аверинцев С.С. и др. М., 1989. 375 с.
12. Лисовский В.Т. Эскиз к портрету: жизненные планы молодежи. М., 1962. С. 7.
13. Маршак А.Л. Социология культурно-духовной сферы. – М.: Изд-во гуманитарной литературы, 2007. – 424 с.
14. Пределы роста: доклад Римского клуба / Д.Л. Медоуз, Дж. Рэндерс и др. М., 1991
15. Палаткина Г.В. Молодежный туризм // Учебное пособие – Москва, 2016. – С. 25.
16. Социальные практики современной молодежи: поиск новых идентичностей: материалы Всероссийской науч.-практ. конф. с международным участием. Барнаул, 21–22 мая 2009 г. / отв. ред. С.Г. Максимова. Барнаул, 2009
17. <https://www.wysetc.org/about-us/facts-and-stats/definitions/>
18. https://www.researchgate.net/publication/330200949_Youth_Tourism_as_a_Scientific_Research_Object
19. <https://cyberleninka.ru/article/n/teoreticheskie-i-prakticheskie-aspekty-molodezhnogo-turizma>
20. <https://kun.uz/news/2023/04/11/ozbekistonda-14-yoshdan-30-yoshgacha-bolgan-yoshlar-3-toifaga-ajratildi>
21. <https://journal.sovcombank.ru/zhizn/vozrast-molodezhi-v-rossii-i-drugih-stranah-doskolki-let-chelovek-schitaetsya-molodim>
22. <https://www.un.org/ru/global-issues/youth>